

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.09.2024.Fil/Ped.05.09 RAQAMLI ILMIY KENGASH

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

MATYOKUBOVA SHOXIDA ABIYROVNA

NOFILOLOGIK TA‘LIM YO‘NALISHI INGLIZ TILI
MASHG‘ULOTLARIDA AUTENTIK MATNLARNI O‘QITISH
METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH
(tarix yo‘nalishi misolida)

13.00.02 – Ta‘lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Farg‘ona– 2025

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Matyokubova Shoxida Abiyrovna

Nofilologik ta’lim yo‘nalishi ingliz tili mashg‘ulotlarida autentik matnlarni o‘qitish metodikasini takomillashtirish (tarix yo‘nalishi misolida).....3

Матекубова Шохида Абийровна

Совершенствование методики преподавания аутентичных текстов на занятиях английского языка в нефилологических специальностях (на примере специальности история).....25

Matyokubova Shokhida Abiyrovna

Improving methodology of teaching authentic texts in English lessons in non-philological education (on the history specialty example).....49

E’lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of works published54

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.09.2024.Fil/Ped.05.09 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

MATYOKUBOVA SHOXIDA ABIYROVNA

**NOFILOLOGIK TA‘LIM YO‘NALISHI INGLIZ TILI
MASHG‘ULOTLARIDA AUTENTIK MATNLARNI O‘QITISH
METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH
(tarix yo‘nalishi misolida)**

13.00.02 – Ta‘lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

**PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Farg‘ona– 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/Ped6-448 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Chirchiq davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Farg'ona davlat universiteti veb-sahifasining (www.fdu.uz) hamda "Ziyonet" axborot-ta'lim portali (www.ziyonet.uz) manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Botirova Shaxlo Isamiddinovna
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponenlar:

Iminaxunova Iroda Xuseinovna
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Jumanazarov Umidjon Umirzoqovich
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Yetakchi tashkilot:

Namangan davlat chet tillar instituti

Dissertatsiya himoyasi Farg'ona davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/27.09.2024.Fil/Ped.05.09 raqamli Ilmiy kengashning «16» oktyabr 2025 yil soat 11 da majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100151, Farg'ona shahri, Al-Farg'oniy, 42-uy. Tel.: (993873) 244-66-02; faks: (99873) 244-44-01; e-mail: info@fdu.uz).

575 Dissertatsiya bilan Farg'ona davlat universitetining Axborot resurs markazida tanishish mumkin raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100151, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy. Tel.: (99873) 244-71-28).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «3 oktyabr» kuni tarqatildi.

(2025-yil «3 oktyabr» da 6 - raqamli reyestr bayonnomasi).



[Signature]
M.R.Kadirova
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy Kengash raisi, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

[Signature]
M.Y.Mamajonov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy Kengash kotibi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

[Signature]
D.A.Ganiyeva
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy Kengash qoshidagi Ilmiy Seminar raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda insoniyat butun dunyoni o'rganish, dunyoqarashini kengaytirish, yangi madaniyatlar, g'oyalar va qarashlarni boshdan kechirish imkonini beruvchi tasavvur qilib bo'lmaydigan, fenomenal imkoniyatlar asrida yashayamqda. Xorijiy tillar, xususan ingliz tilini bilish dunyo eshiklarini ochadigan kalit ekanligini inkor etib bo'lmaydi. Biroq, turli tillar, urf-odatlar, madaniyatlar, e'tiqod va qonun qoidalariga duch keladigan xorijiy mamlakat tillarini o'qitish va o'rganish har doim ham oson ish bo'lmagan. Ushbu tadqiqot ishimiz chet tilini o'rganishda qiyinchilikka duch keladigan talabalarga, xususan nofilologik ta'lim yo'nalishidagi talabalar uchun til o'rganishning oson va avzal muhitlarini yaratishida xissa qo'shishidan umidimiz katta. Xorijiy oliy ta'lim muassasalarida akademik muhitni zamonaviy texnologik taraqqiyot konsepsiyalari bilan uyg'unlashtirish, xususan, innovatsion pedagogik texnologiyalar va ilg'or ta'lim modellarini qo'llash, ta'lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish hamda masofaviy o'qitish xizmatlarini rivojlantirish kabi yo'nalishlarga katta ahamiyat berilmoqda. Shuningdek, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini CEFR (chet tillarini o'rganish bo'yicha Yevropa umumiy kompetensiyalari) talablariga muvofiq tayyorlash, ularning fikrlash doirasida zarur bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish masalalari ham dolzarb ilmiy izlanishlar markazida turibdi.

Dunyoda hozirgi kunda pedagogik pozitsiyalarni qayta ko'rib chiqish tendensiyasi mavjud bo'lsada, ta'lim sohasidagi mavjud vaziyatning o'ziga xos xususiyatlari ko'pincha an'anviylikicha qolmoqda. Ularning asosiy ko'rsatgichlari: autentikni hisobga olmasdan, qolipga solingan tayyor tajribani uzatish va ko'paytirish orqali bilim, ko'nikmalarni to'plashdan iborat bo'lib qolmoqda. Bugungi kunda talabalarni o'qitish uchun turli xil kreativ sharoitlar kerak va ulardan ijodiy, mustaqil, tanqidiy fikrlash, muammoli vaziyatda nostandart qarorlar qabul qilish, qat'iy harakat qilish va ta'lim ma'lumotlarini o'zlashtirish qobiliyati talab qilinadi. Shu bois, ta'lim jarayonida zamonaviy metodlarni joriy etish, talabalarni faol sub'ekt sifatida jarayonga jalb etish, shuningdek, real muloqotga yaqin sharoitlarni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda ko'pgina mahalliy mutaxassislar "matn"ni til o'qitishning asosiy birligi sifatida tan oladilar. Matn til birliklarining qo'llanishini aks ettiradi, madaniy ma'lumotlarni olib yuradi, talabalar muloqotini rag'batlantiradi va mavzuga qiziqishni uyg'otadi. Uning ta'lim jarayonidagi funksiyalarining xilma-xilligi o'qitishda matnni tanlash va qo'llash bilan bog'liq tadqiqotning ahamiyatini belgilaydi. So'nggi yillarda xorijiy tillarni o'qitish vositasi sifatida "*autentik*" ya'ni original matnlarga qiziqish ortdi. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Bugungi globallashuv davrida xorijiy tillarni chuqur o'rganish - bu har bir yoshning kelajagi, raqobatbardoshligi va jamiyatda munosib o'rin egallashi uchun zaruratdir"¹ Yurtimizda xorijiy tillarni mukammal bilish faqatgina filologik yo'nalish talabalaridan emas, balki nofilologik yo'nalish talabalaridan ham bir xil darajada talab qilinmoqda. Bundan tashqari yosh avlodning til o'rganishga bo'lgan qiziqishlari yuqori. Biroq, mavjud psixologik, pedagogik va uslubiy tadqiqotlarning xilma-xilligi bilan birga, afsuski chet tillarni o'qitishda haqiqiy ta'lim vositalariga yetarlicha e'tibor berilmayabti, bunday ta'lim vositalarini til o'qitishda qo'llash tabiiy holatdek e'tibordan chetda qolayotgandek. Ushbu tadqiqotimiz Nofilologik

¹ Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – 400 b.

ta'lim yo'nalishi xususan, tarix yo'nalishi talabalariga ingliz tilini o'qitishdagi mavjud bo'shliqlarni ma'lum darajada to'ldirishda yordam beradi va talabalarning ingliz tilini faqatgina chet tilini bilish maqsadida emas balki, til o'rganishdan maqsadning keng imkoniyatlari mavjudligini yoritib beramiz va til o'zlashtirishlarida autentik matnlar bilan o'qitishni takomillashtirish mavzusini zamonaviy oliy ta'lim uchun qay darajada dolzarb ekanini ko'rsatamiz.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son - "O'zbekiston respublikasi xalq ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasida Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi, 2020-yil 29-oktyabrdagi PF-6097-son "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "Yangi O'zbekistonning 2022–2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar" to'g'risidagi, 2020-yil 27-fevraldagi PQ-4623-son «Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2021-yil 19-maydagi "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5117-son, 2023-yil 26-aprel PQ-135-sonli qarori - "Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarning ijrosini ta'minlashda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llarida" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajariladi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Nofilologik ta'lim yo'nalishi ingliz tili mashg'ulotlarida autentik matnlarni o'qitish metodikasini takomillashtirishga oid masalalar bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirilgan.

O'zbekiston Respublikasi miqyosida olimlardan xorijiy tillarni o'qitishning turli jihatlarini takomillashtirish, nofilologik oliy ta'lim muassasalarida chet tilini o'qitish masalalari, ingliz tilini o'qitishda autentik matnlardan foydalanib o'qitish masalalari, xususan, bo'lajak mutaxassislarning chet tilini o'rganishni takomillashtirish muammolariga bag'ishlangan ilmiy-nazariy tadqiqotlar J.J.Jalolov, L.T. Ahmedova, V.I. Normuratova, D.M. Isroilova, F.I.Ikromxonova, M.A.Nazarova, X.A.Mamatqulov, F.Sh.Alimov, N.J.Hamidova, R.X.Djuraev, Sh.A.Abdullaeva, O.Musurmonova, Sh.Sharipov, D.Sharipova, M.Quronov, P.X.Omonov, F.E.Sattorova, Q.Sh.Maxmudov va boshqa olimlarning ilmiy izlanishlarida yoritilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) davlatlari olimlaridan A.A.Bagautdinov, O.I.Kiyan, L.N.Polupina, R.L.Milrud, Y.V.Nosonovich, T.L.Morozovalarning ishlarida ingliz tili o'qituvchilarining pedagogik faoliyatlarini

turli innovatsion metodlar vositasida tashkil etish bo'yicha masalalar tadqiq qilingan.

Xorijlik olimlardan M.R.Breen, J.Harmer, W.Y.Lee, M.Byram, O.G.Gonzalez, A.Glimore, Little,D. & D.Singleton, D.McGarry, F.Mishan kabi olimlarning ishlarida talabalarning chet tilidagi muloqotni o'rganish muvaffaqiyatiga ta'sir qiluvchi orginallikning turli jihatlarining tadqiq qilinganligini ko'rish mumkin.

Yuqorida olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ta'lim muassasalarida xorijiy til ta'limi kontekstida talabalarning lingvistik, kommunikativ kompetensiyalarini oshirish, lingvistik ko'nikmalarini shakllantirish zarurligi ta'kidlangan. Biroq, aynan nofilologik ta'lim yo'nalishi mutaxassislarida til kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish bilan bog'liq ilmiy izlanishlar to'liq olib borilmagan. Nofilologik ta'lim yo'nalishi talabalarida xorijiy til kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish zaruriyati mavjud.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya mavzusi Chirchiq davlat pedagogika universitetining FZ-245/0001874-sonli "Pedagogik ta'lim innovatsion klasterining ilmiy-nazariy asoslari va amaliy mexanizmlari" mavzusidagi ilmiy-amaliy tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ingliz tilini o'qitishda nofilologik (tarix yo'nalishi misolida) ta'lim yo'nalishi talabalarining asosiy til ko'nikmalarini (tinglab tushunish, o'qish, yozish gapirish), professional, pragmatik (kommunikativ va madaniy) kompetensiyalarini samarali rivojlantirish uchun autentik matnlardan foydalanish metodikasini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

nofilologik (tarix) ta'lim yo'nalishi talabalariga ingliz tilini autentik matnlar bilan o'qitishni takomillashtirishda mavjud muammolar, imkoniyatlar, samarali o'qitish omillari, tamoyillar, didaktik imkoniyatlari hamda pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash;

nofilologik ta'lim jarayonida autentik matnlardan foydalanishning zamonaviy, mahalliy va xorijiy tajribasini tahlil qilish va bo'lajak mutaxassislarni chet tilini o'rganishga yo'naltirishda autentik materiallarning motivatsion va samarali jarayonini ta'minlash zarurligini asoslash;

autentik vositalar yordamida chet tilini o'qitish metodikasini takomillashtirishning pedagogik shartlarini asoslash hamda unga mos didaktik modelni takomillashtirish;

auditoriya mashg'ulotlar doirasida talabalarning kommunikativ va pragmatik kompetensiyalari, tanqidiy fikrlash qobiliyatlari, til ko'nikmalari, madaniy savodxonlik darajasini aniqlash, tajriba-sinov ishlarini samaradorligini baholash asosida ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obykti sifatida nofilologik ta'lim yo'nalishi talabalariga ingliz tilini autentik matnlar bilan o'qitish metodikasini takomillashtirish jarayoni belgilandi va pedagogik tajriba sinov ishlariga Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Guliston davlat universiteti va Urganch davlat universitetlaridan tarix yo'nalishidan 221 nafar respondent talabalari jalb etildi.

Tadqiqotning predmetini nofilologik ta'lim yo'nalishidagi talabalarga ingliz tilini o'qitishda autentik matnlarni qo'llashni takomillashtirish mazmuni, shakl, vosita va metodlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Ushbu tadqiqotda uning maqsadi va vazifalariga muvofiq keluvchi pedagogik va ilmiy-metodik adabiyotlarni qiyosiy-tanqidiy o‘rganish, tahlil qilish, prognostik (umumlashtirish, baholash), deskriptiv, kuzatish, sotsiometrik (anketa, test); shuningdek, monitoring, pedagogik tashxis, tajriba-sinov; pedagogik hodisalarning tizimli tahlili, matematik-statistik tahlil; natijalarni umumlashtirish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ingliz tili o‘rganuvchilarining lingvopsixologik holati til o‘rganayotgan talabalarda mavjud til ko‘nikmalari, til tajribasi, til strukturasi xabardorlik omillari yuzasidan tahlillari natijasida autentik materiallardan foydalanib o‘qitish tizimi ikkinchi tilni o‘rganishdagi metodik yondoshuvlari turlaridan farqlanganligi asoslangan;

ingliz tilini o‘rganishda adaptiv autentik matnlarning janr xususiyatlari lingvistik omillarni hisobga olgan holda autentik materiallardan foydalanishda monologik va dialogik matnlarni differentsiya qilish orqali takomillashtirilgan;

talabalarining kommunikativ va madaniy kompetensiyalarini rivojlantirish uchun autentik matnlardan foydalanish mexanizmlari A2 darajadan B1 darajagacha olib chiqish orqali ularni o‘quv kontekstiga moslashtiruvchi pragmatik kompetensiyasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan integrativ modeli takomillashtirilgan;

talabalarining ingliz tilini o‘zlashtirish jarayonidagi pragmatik va lingvomadaniy kompetensiyalarini rivojlantirishdagi o‘rni til bilish indikatorlari asosida baholashning ilmiy-metodik samaradorligini asoslovchi “life-long learning” tizimi asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Nofilologik ta‘lim yo‘nalishi (tarix yo‘nalishi misolida) ingliz tili mashg‘ulotlarida autentik matnlarni o‘qitishni takomillashtirishga qaratilgan “Nofilologik ta‘lim yo‘nalishida ingliz tili darslarida autentik matnlarni o‘qitish metodikasini takomillashtirish” nomli elektron dastur ishlab chiqilgan. (№ DGU 2023 2353, 18.03.2023);

bo‘lajak nofilologik ta‘lim yo‘nalishi talabalarini uchun, maktabgacha va boshlang‘ich ta‘limda xorijiy til ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha autentik matnlarning til o‘qitishdagi samarali va motivatsion uslublari asosida “Innovative Pedagogical Technologies for Teaching Foreign Languages” nomli o‘quv qo‘llanma yaratilgan;

nofilologik ta‘limdagi tarix yo‘nalishi talabalarini uchun ingliz tili fanidan interfaol va zamonaviy amaliy dars mashg‘ulotlari tizimi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi tadqiq etilayotgan muammoga ilmiy-pedagogik yondashuv tadqiqot maqsadi, obyekti, predmeti, vazifalariga mos keluvchi metodlar majmuasidan foydalanilganligi, tajriba-sinovga jalb etilgan ta‘lim muassasalari soni talab darajasida ekanligi, tajriba-sinov natijalari statistik ma‘lumotlarga tayanilganligi va matematik-statistik jihatdan qayta ishlanganligi hamda mavzu yuzasidan chop etilgan ishlar mazmuniga ko‘ra izohlanadi. Tadqiqot davomida ilgari surilgan ilmiy yangiliklar lingvopsixologik, lingvodidaktik hamda metodik asoslar bilan bir qatorda empirik tajriba-sinov natijalari bilan ham tasdiqlandi. Shu bois mazkur yangiliklar amaliyotga tatbiq qilinishi mumkin bo‘lgan ilmiy asoslangan xulosalar sifatida namoyon bo‘ladi. Tadqiqot muammosiga tizimli va izchil yondashuv, tadqiqot ishi bo‘yicha olib borilgan tajriba-sinov natijalari va ularning pedagogik tadqiqotlarga qo‘yiladigan zamonaviy talablarga mosligi, zamonaviy va kompetensiyaviy yondashuvlar asosida talabalarining kommunikativ kompetensiyalarini, lingvistik ko‘nikmalarini rivojlantirish metodiklari tadqiq

etilganligi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi va reprezentativligi ta'minlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining **ilmiy ahamiyati** autentik matnlar yordamida talabalarning xorijiy til kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishda dars jarayoniga zamonaviy texnologiyalar, interfaol yondashuvlarni integratsiyalashtirish va unga mos keladigan kompetensiyaviy va refleksiv yondashuv keyingi yillarda fanda tobora keng tarqalganligi, zamonaviy yondashuvlar nuqtai nazaridan ta'lim muassasalarida zamonaviy o'qitish texnologiyalari va metodikalariga oid masalalarining mualliflik nuqtai nazaridan tahlil qilinganligi, talabalarning xorijiy til kompetentligini rivojlantirishning nazariy-pedagogik, didaktik imkoniyatlari, tamoyillari, bosqichlari, pedagogik shart-sharoitlarining aniqlanganligi, zamonaviy ta'lim jarayonida talabalarning xorijiy tilida asosiy til kompetensiyalarini rivojlantirish mexanizmlarining takomillashtirilganligi, metodologik yondashuvlar mohiyatining ochib berilganligi, til ta'limining metodologik asoslarini kengaytirib, chet tili ta'limining samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi yangi tushunchalar va uslublarni ilmiy adabiyotlarga qo'shishdagi xizmati hamda ilmiy - metodik tavsiyalarining ishlab chiqilganligi bilan tavsiflanadi.

Tadqiqot natijalarining **amaliy ahamiyati** olingan natijalar ta'lim muassasalarida nofilologik ta'lim yo'nalishida (tarix yo'nalishi misolida) ingliz tilini o'qitish jarayonida talabalarning xorijiy til kompetensiyalarini rivojlantirishning mazmun - mohiyatini takomillashtirishga xizmat qilishi, tadqiqot natijasida aniqlangan tamoyillar, mezonlar, texnologiyalar, ishlab chiqilgan metodik ta'minot, pedagogik jarayon modeli va mashg'ulotlar to'plami ta'lim jarayoniga tatbiq etilganligi bilan izohlanadi. Tadqiqotda taqdim etilgan metodikalar, autentik matnlarni talabalarning pragmatik va madaniy kompetensiyalarini rivojlantirish uchun amaliy vosita sifatida qo'llashga imkon beradi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy - metodik tavsiyalardan, kompetensiyaviy va zamonaviy yondashuvlar asosida talabalarning xorijiy til kompetensiyalarini oshirish texnologiyalaridan pedagogik fanlar mazmunini takomillashtirishda, malaka oshirish kurslarida hamda o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarlikni oshirish jarayonida foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Nofilologik ta'lim yo'nalishi ingliz tili mashg'ulotlarida autentik matnlarni o'qitish metodikasini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

ingliz tili o'rganuvchilarining lingvopsixologik holati til o'rganayotgan talabalarda mavjud til ko'nikmalari, til tajribasi, til strukturasi xabardorlik omillari yuzasidan tahlillari natijasida autentik materiallardan foydalanib o'qitish tizimi ikkinchi tilni o'rganishdagi metodik yondashuvlari turlaridan farqlanganligi asoslanganligiga oid tavsiyalardan "Innovative Pedagogical Technologies for Teaching Foreign Languages" nomli o'quv qo'llanmasi mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 22-dekabrda 537-son ruxsatnomasi). Natijada, ingliz tilini o'qitishning zamonaviy pedagogik texnologiyalarining integratsiyasi samaradorligi hamda talabalarning xorijiy til kompetensiyalarini autentik materiallar vositasidan foydalanish imkoniyatlari oshgan;

ingliz tilini o'rganishda adaptiv autentik matnlarning janr xususiyatlari lingvistik omillarni hisobga olgan holda autentik materiallardan foydalanishda monologik va dialogik matnlarni differentsiya qilish orqali takomillashtirishga oid tavsiyalardan "Innovative Pedagogical Technologies for Teaching Foreign

Languages” nomli o‘quv qo‘llanmasi mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 22-dekabrda 537-son ruxsatnomasi) amaliyotga tatbiq etilgan; Natijada, talabalarning xorijiy til bo‘yicha asosiy malaka va ko‘nikmalarini kompetensiyaviy yondashuv asosida rivojlantirishga yo‘naltirilgan integrativ modelidan foydalanish imkoniyatlari kengaytirilgan;

talabalarning kommunikativ va madaniy kompetensiyalarini rivojlantirish uchun autentik matnlardan foydalanish mexanizmlari A2 darajadan B1 darajagacha olib chiqish orqali ularni o‘quv kontekstiga moslashtiruvchi pragmatik kompetensiyasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan integrativ modeli takomillashtirishga oid takliflar “Innovative Pedagogical Technologies for Teaching Foreign Languages” nomli o‘quv qo‘llanmasi mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 22-dekabrda 537-son ruxsatnomasi). Natijada, autentik matnlarni o‘qitishning ta‘limiy samaradorligi va ta‘lim platformalari asosida talabalarning xorijiy til kompetensiyalarini rivojlantirishning axborot-didaktik ta‘minotini boyitishga doir o‘quv materiallardan foydalanish imkoniyatlari kengaytirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 5 ta respublika anjumanlarida muhokama qilingan va ma‘qullangan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 19 ta ilmiy-uslubiy ishlar, jumladan, 1 ta metodik qo‘llanma, 1 ta mualliflik guvohnomasi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola, jumladan, 5 ta Respublika va 4 ta xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, 137 sahifa matn, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning “**Kirish**” qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslanib, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, predmeti va obykti aniqlangan, tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilib, uning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslanib, ishning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, aprotatsiyasi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi ko‘rsatilgan.

Dissertatsiyaning “**Chet tillarini o‘qitishda autentik matnlardan foydalanishning nazariy asoslari**” deb nomlangan birinchi bobida xorijiy til ta‘limida metodik autentik tushunchasi va tasnifi, chet tillarini o‘qitishda autentik matnlarning ta‘limiy maqsadda shakllanishi, nofilologik fakultet talabalariga chet tilini o‘qitishning ilmiy-pedagogik yondashuvlari, metodlari, texnologiyalari va autentik matnlar tahlili keltirilgan. Bugungi kunda til o‘qitish va o‘rganish tobora raqamli formatga ya‘ni: ijtimoiy tarmoqlar, ijtimoiy media va shu kabi tarmoqlar tomon siljir ekan, ingliz tilining xalqarolashuvi internet bilan tobora bog‘liq bo‘lishi “autentik” tushunchasini tobora yo‘qolishiga sabab bo‘layotgandek deydi ko‘pgina tadqiqotchilar. Ammo, nazarimizda bu mutlaqo teskarisini aks ettiradi. Zamonaviy til o‘rganish muhitida “autentik” tushunchasining o‘rni beqiyos. Misol uchun, raqamli davrdan oldingi davr nazariyotchilaridan biri Van Lier o‘z ishlarida shuni takidlaydiki, “autentik” o‘quv materiallarining o‘ziga xos emas, balki talabalarning ular bilan aloqadorligi va ular bilan tuzilgan vazifalar omili edi deydi. Bundan

tashqari ikkilanmasdan shuni takidlashimiz mumkinki, zamonaviy va ijtimoiy media til o'qitishda autentlik tushunchasining yanada jadallashuvi va yangi yondashuv va metodlarni yaratilishi va mavjud metodlarni yangicha yondashuvlarda tadqiq etilishiga ulkan va zarur vosita bo'ladi.

Metodik autentlik (methodological authenticity) xorijiy til ta'limida metodik yondashuvlarning haqiqiylikni va ularning talabalarga ta'sirini anglatadi. Bu tushuncha ta'lim jarayonida qo'llaniladigan metodikalar va materiallarning talabalarning real ehtiyojlariga mos kelishini, ularning madaniy kontekstni hisobga olishni va talabalarga samarali tarzda o'rgatishni ifodalaydi.

Metodik autentlik quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi:

Haqiqiylik (authenticity): ta'lim metodlari va materiallari haqiqiy va real hayotdagi vaziyatlarni aks ettirishi kerak. Bu talabalarga tilni tabiiy kontekstda o'rganish imkoniyatini beradi.

Madaniy moslashuv (cultural relevance): ta'lim uslublari va materiallari talabalarning madaniy va lingvistik kontekstiga mos bo'lishi kerak. Bu ular uchun yanada qiziqarli va amaliy bo'ladi.

Interaktivlik (interactivity): ta'lim jarayoni talabalarni faol ishtirok etishga undashi, ular bilan interaktiv muloqotni rag'batlantirishi kerak.

Ehtiyojlarga moslashuv (adaptability): ta'lim metodlari talabalarning individual ehtiyojlariga mos kelishi, ularning o'rganish uslublari va qobiliyatlariga moslashtirilishi kerak. Agar bir til o'qituvchisi ingliz tilini o'rgatish uchun ingliz tilida yozilgan haqiqiy maqolalarni, radio dasturlarini yoki filmlar fragmentlarini qo'llasa, bu metodik autentlikni ta'minlaydi. Shu bilan birga, talabalarni real hayot vaziyatlariga tayyorlash uchun interaktiv mashqlar, rolikli o'yinlar va til amaliyotlari tashkil qilsa, bu metodik autentlikni yanada mustahkamlaydi. Metodik autentlik talabalarga tilni real kontekstda o'rganish, madaniy moslashuvni oshirish va o'rganish jarayonini samarali va qiziqarli qilish imkonini beradi.

Matn (lotincha: textus - mato; birikma) ma'lum moddiy tashuvchiga bog'langan inson fikri; belgilarning umumiy izchil va to'liq ketma-ketligi. **Matn-**grammatik, semantik va pragmatik jihatdan tuzilgan so'zlar va jumlar tizimi. Til o'qitish va lingvistik sohasida, matnning mazmuni va tuzilishi tahlil qilinadi, matnlarni o'rganish esa tilni o'qitishda muhim ahamiyatga ega. "**Autentlik**" degan mujmal tushunchani anglash uchun uning evolyutsiyasi, tarixiy rivojlanishi va uning til pedagogikasi uchun ahamiyatini ko'rib chiqsak. Ingliz tilidan (Authentic) "Autentlik" termini "Haqiqiylik" (keyingi o'rinlarda haqiqiylik deb ham yuritiladi) deb tarjima qilinadi. Ushbu termin ko'pincha darslarda qo'llaniladigan matnlarni tavsiflash uchun qo'llaniladi.

Autentik materiallar nafaqat matnlarni, balki til o'rganishda foydalaniladigan boshqa turdagi resurslarni ham o'z ichiga olgan kengroq turkumni o'z ichiga oladi. Bunga videolar, audio yozuvlar, reklamalar, broshyuralar, menyular va hatto real hayotdagi ob'ektlar ham kirishi mumkin. Autentik matnlar singari, autentik materiallar ta'lim maqsadlarida emas, balki haqiqiy muloqot maqsadlarida yaratilgan. Ular talabalarga tilni real sharoitlarda qo'llash bilan tanishtirishni ta'minlaydi, bu esa tinglash va tushunish ko'nikmalarini oshiradi. Haqiqiy matnlar tilning haqiqiy kommunikativ maqsadlarda ishlatilishini ko'rsatsa-da, Williams ta'kidlaganidek, ular sehrli tarzda tilni yoki tildan foydalanishni ko'proq o'rganishga olib kelmaydi. Bundan tashqari, haqiqiy matnlar "haqiqiy" yoki, aniqrog'i, "adekvat" javobni kafolatlashini kutmaslik kerak. Ushbu haqiqatdan tashqari, haqiqiy materiallardan foydalanish mezonlari ham e'tiborga olinishi kerak. Masalan, gazetalardan faqat til materiali sifatida foydalanish zerikish muhitini yaratishi

mumkin. Haqiqiy matnlar tilning haqiqiy kommunikativ maqsadlarda ishlatilishini ko'rsatsa-da, Williams ta'kidlaganidek, ular sehrli tarzda tilni yoki tildan foydalanishni ko'proq o'rganishga olib kelmaydi. Autentik materiallarga asoslangan tizim lingvopsixologik yondashuvni integratsiya qilishi bilan an'anaviy metodlardan farqlanadi. Bu yondashuvning samaradorligi tajriba-sinov mashg'ulotlarida talabalarning faol ishtiroki va natijalari bilan asoslandi. Janr differensatsiyasi (monologik va dialogik) o'quvchilarning turli kommunikativ vaziyatlarda tilni qo'llash ko'nikmalarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu differensatsiya amaliy mashg'ulotlarda qo'llanilib, talabalarning og'zaki nutq faoliyatida yuqori samaradorlikni ko'rsatadi.

Dissertatsiyaning "*Nofilologik ta'lim yo'nalishi ingliz tili mashg'ulotlari uchun autentik matnlarni tanlash, rivojlantirish va takomillashtirish*" deb nomlangan ikkinchi bobida Nofilologik ta'lim yo'nalishi ingliz tili darslari uchun autentik matnlarni tanlash me'zonlari (o'quv jarayonida haqiqiy va haqiqiy bo'lmagan matnlar), nofilologik ta'lim yo'nalishi talabalarining pragmatik (kommunikativ va madaniy) kompetensiyalarini autentik matnlar asosida rivojlantirish modeli, Nofilologik ta'lim yo'nalishida autentik matnlarni o'qitishni takomillashtirish metodikasi haqida so'z boradi. Umuman olganda, pedagogik matnlar o'quv jarayonini osonlashtirishga qaratilgan bo'lsa, autentik matnlar tilni real kontekstda o'rganish va amalda qo'llash uchun zarur bo'ladi. Quyida jadvalda pedagogik maqsadlarda yaratilgan matnlar va real hayotga asoslangan matnlarning farqini umumiy jadvalda ko'rish mumkin:

Jadval 2.1. Pedagogik maqsadlarda yaratilgan matnlar va haqiqiy hayotga asoslangan autentik matnlar farqi

Kriteriyalar	Pedagogik matnlar	Autentik matnlar
Maqsad	Til ko'nikmalarini o'rgatish	Real hayotga tayyorlash
Mazmun	Yaratilgan, soddalashtirilgan	Haqiqiy vaziyatlardan olingan
Murakkablik	Talaba darajasiga mos, soddalashtirilgan	Murakkab, tabiiy bo'lishi mumkin
Tabiiylik	Sun'iy, o'rgatish uchun maxsus yaratilgan	Haqiqiy va tabiiy
Mavzular	O'rgatish maqsadiga yo'naltirilgan	Har kunlik hayot, madaniyat, yangiliklar
Qulaylik	O'qituvchining maqsadiga moslashgan	Tushunish uchun qulay
Lingvistik tuzilma	Grammatika va so'z boyligini o'rgatish	Tabiiy nutq tuzilmalari
Qiziqarli/motivatsiya	Ba'zida sun'iy, talabalarni rag'batlantirishga mo'ljallangan	Real hayotga bog'liq, qiziqarli
Autentik matnlarning afzalliklari	1. Haqiqiy tajriba 2. Qiziqarli 3. Kontekstual o'rganish 4. Tabiiy o'rganish 5. Madaniyat va tarmoqni tushunish	

Jadvalda ko'rsatilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, ikkinchi tilni o'rganishda autentik matn va materiallar o'qish va tinglab tushunish ko'nikmalarini rivojlantirishda foydalaniladi.

Berardo o'z tadqiqotlaridan kelib chiqib shunday deydi: "Autentik matnlarni tanlashda aniq maqsadimiz bo'lishi lozim".Meinhof esa bunday matnlar 2 muhim to'siqlarni: lingvistik qiyinchiliklar va uydirmalikni yengib o'tish uchun matnlar mazmun-mohiyatiga ko'ra, talabalarning qiziqishlariga asoslanib va haqiqiyiliga ko'ra tanlanishi zarur deydi. Meinhof autentik matnni yanada tushunarli va ishonchli qilish uchun ularni tanlashda situatsion ya'ni vaziyatli bilimlarni faollashtirishni taklif qiladi. Vaziyatli bilimlarni aktivlashtirish uchun professor-o'qituvchi talabalarga ular o'rganishi va jamlashi kerak bo'lgan matnlarni o'z qiziqishlariga asoslanib tanlash imkonini berish kerak deydi. Bunda materiallarni tanlash 3 bosqich asosida bo'lishi zarur: 1.Tanlangan material bir-biriga bog'liq mavzular majmui bo'lishi; 2.Matn va material tanlashda yoshga e'tibor qaratish; 3.Bir xil matn turidagi turli na'munalarni qarama-qarshilik bilan yonma-yon joylashtirishga rahbarlik qilish mumkin (gazeta yoki jurnallar to'plami) yig'ish orqali. Talabalarning qiziqishlarini material tanlashga yo'naltirish matnlar va ularning mazmuni haqida oldingi bilimlar faollashtirishda muhim ro'l o'ynaydi.

Autentik matnlarni Nofilologik ta'lim yo'nalishidagi, hususan tarix yo'nalishidagi talabalarga o'qitishda asosiy tamoyillarni belgilash zarurati mavjud. Chunki tarix kabi maxsus sohalarda talabalar chet tilini o'rganishda ko'plab to'siqlarga duch keladilar. Bu to'siqlar orasida tilni real hayotda ishlatish qiyinchiliklari, madaniy kontekstning yetarlicha tushunilmasligi, matnlar mazmunining talabalar uchun murakkabligi va ularda yetarlicha motivatsiya yo'qligi mavjud. Shu sababli, bunday muammolarni bartaraf etishda ilmiy ishimizning metodologik qismida quyidagi asosiy tamoyillarga rioya qilish ishimizni samaradorligini oshiradi:

1. Bosqichma-bosqich tamoyili. Matnlarni murakkablik darajasiga ko'ra bosqichma-bosqich tanlash muhimdir. Avvaliga qisqa va sodda matnlar bilan ishlashni yo'lga qo'yish, keyinchalik murakkabroq va analitik talab qiladigan matnlarga o'tish talabalarni qiyinchiliklardan qutqaradi va ular uchun o'quv jarayonini yanada samarali qiladi.

2. Kontekstuallik tamoyili. Autentik matnlar tarix yo'nalishidagi talabalar uchun mazmun va uslub jihatidan mos bo'lishi kerak. Bu, masalan, tarixiy hujjatlar, voqealar bayoni, biografik matnlar yoki tarixiy tadqiqot maqolalarini o'rganishni anglatadi. Bu talabalarga o'z yo'nalishlariga mos til materiallari bilan ishlash imkoniyatini beradi va ularning qiziqishini oshiradi.

3. Integratsion tamoyil. O'qitish jarayonida turli ko'nikmalarni birgalikda rivojlantirishga qaratilgan. Masalan, o'qish, yozish, tinglash va gapirishni bir butun holda o'rganish. Tilni faqat grammatik yoki lug'aviy jihatdan emas, balki kommunikativ jihatdan ham qamrab oladi. Tilni o'rgatishda uning barcha ko'nikmalarini (o'qish, yozish, tinglash, gapirish) va turli mazmuniy jihatlarini bir-biriga bog'liq holda rivojlantirish kerak. Bir matn asosida talabalar uni o'qish, asosiy fikrlarni ajratish, mavzu bo'yicha yozma insho yozish va bu mavzuda munozara qilish orqali har tomonlama ishlashadi.

4. Innovatsion yondashuv tamoyili. Autentik matnlarni zamonaviy texnologiyalar va interaktiv usullardan foydalangan xolda o'rgatish:

nega muhim? Texnologiyalar orqali matnlarni boyitish va talabalar qiziqishini oshirish mumkin.

Amalda qanday?

Raqamli platformalar: online matn resurslari va interaktiv mashqlarni qo'shish.

Multimedia: matnga asoslangan videolar, podkastlar yoki infografikalarni qo'llash.

AI yordamida: sun'iy intellekt orqali matnni tahlil qilish, tarjima qilish yoki murakkablik darajasini moslashtirish.


Gamifikatsiya: o'yin elementlarini kiritib, matn bilan ishlashni yanada qiziqarli qilish.

Shu tarzda, bu tamoyillar ilmiy ishimizni nafaqat metodologik asosda, balki amaliy jihatdan ham kuchaytiradi va talabalarning til ko'nikmalarini, madaniyat, va tarixiy bilimlarini kompleks tarzda rivojlantirishga yordam beradi.

Tarix yo'nalishi talabalarining til ko'nikmalarini rivojlantirish uchun autentik matnlarni tanlashda bu mezonlar asosida materiallar va metodlarni qo'llash samarali bo'ladi. Har bir daraja uchun mos resurslar, vazifalar va misollar til ko'nikmalarini tizimli ravishda oshirishga yordam beradi. Janr differentsiatsiyasi (monologik va dialogik) o'quvchilarning turli kommunikativ vaziyatlarda tilni qo'llash ko'nikmalarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu differentsiatsiya amaliy mashg'ulotlarda qo'llanilib, talabalarning og'zaki nutq faoliyatida yuqori samaradorlikni ko'rsatadi.

Shu sababdan, autentik matnlarni o'qitish metodikasini takomillashtirish, talabalarga tilning faqat grammatik jihatlaridan foydalanish imkoniyatini beribgina qolmay, balki ularni tilni ijtimoiy va madaniy kontekstda, shuningdek, pragmatik nuqtai nazardan ham to'g'ri qo'llashni o'rgatishning samarali vositasi sifatida xizmat qiladi. Autentik matnlar, ayniqsa, real hayotdagi ma'lumotlar va muloqot materiallarini o'z ichiga olgan matnlar, talabalarga tilni o'rganishda mustahkam asos yaratadi, ularni nafaqat grammatika va lug'atni o'rganishga, balki til ko'nikmalarini rivojlantirish va mustahkamlashda, professional yo'nalishda erkin tushunish va muloqot qilishni, kommunikativ va pragmatik kompetensiyalarni rivojlantirishga ham yo'naltiradi. Bunday metodika yordamida talabalar tilni o'rgatishning haqiqiy, amaliy va ijtimoiy nuqtai nazardan qanday ishlatilishi mumkinligini tushunadilar. Madaniyatlararo aloqalar va kommunikativ yondashuvlarning rivojlanishi talabalarga faqat bir tilni o'rganish emas, balki boshqa madaniyatlarning til va nutq uslublarini ham tushunish, tilning o'zaro almashinuvda qanday ishlatilishini anglash imkonini beradi. Shu bilan birga, autentik matnlarni o'qitish metodikasining qo'llanilishi talabalarga real dunyoda tilni qanday qo'llashni, nafaqat yozma va og'zaki nutqdagi grammatika va leksikani, balki nutq harakatlarini, tilni ijtimoiy va pragmatik kontekstda ishlatishni ham o'rgatadi.

Quyidagi modelda autentik matnlar talabalarga muloqotga asoslangan o'qitish metodlarini qo'llashda yordam beradi, ya'ni autentik materiallar yordamida talabalarni real hayotdagi vazifalarni bajarishga undaydi. Har bir modelning maqsadi va mazmuni talabalarga tilni real va amaliy kontekstda ishlatishni o'rgatishdan iborat. Model CEFR talablari asosida talabalarning bilim darajasini A2 bosqichidan B1 bosqichigacha rivojlantirishni ta'minlaydi. Bu jarayon bosqichma-bosqich kuzatilib, nazariy asoslar amaliy tajriba bilan mustahkamlandi.



2.2-rasm. Nofilologik ta'lim yo'nalishida ingliz tili darslarida autentik matnlarni o'qitish metodikasini takomillashtirish modeli

Nofilologik ta'lim yo'nalishi ingliz tili mashg'ulotlarida autentik matnlarni o'qitish metodikasini takomillashtirish modelini (2.2-rasm) yaratishda bizgacha bo'lgan ko'pgina olimlarning tadqiqotlari, mavzimiz doirasida yaratilgan modellar, metodologik tavsiyalar bilan tanishib chiqtik va modelni yaratish jarayonida birqancha modellar tayanch model sifatida xizmat qildi. Yaratgan modelimizning hozirgi globallashuv, raqamli asr ya'ni, zamonaviy texnologiyalar shiddat bilan o'zgarayotgan va rivojlanayotgan bir davrda til o'rganishni maqsad qilgan yoki majburiy fan sifatida o'rganayotgan talaba yoshlarga nafaqat foydali balki samarali va natijali bo'lishi nazarda tutilgan. Bundan tashqari, autentik matnlar yoki materiallardan foydalanish ta'limda, hususan tillarni o'rganishda yangi metod bo'lmasda yuqorida aytganimizdek raqamli asrda uning imkoniyatlari cheksiz ekani va yangidan yangi, innovatsion shart- sharoitlarni ta'minlashda xizmati ulkan ekani tadqiqotimizning maqsadi va bu maqsadga erishildi. Shu o'rinda Nofilologik ta'lim yo'nalishi ingliz tili mashg'ulotlarida autentik matnlarni o'qitish metodikasini takomillashtirish modelini yaratishda quyidagi tavsiya va vaziflarni ishlab chiqdik:

Haqiqiy til muhitini yaratish: talabalarga autentik materiallarni zamonaviy texnologik resurslar va vositalar ta'lim resurslari (video va audio resurslar, online platformalar, ijtimoiy media platformalari, gazeta maqolalari, intervyular, video va audio yozuvlar) taqdim etish.

Til ko'nikmalarini rivojlantirish: har bir darsda barcha til ko'nikmalarini (o'qish, yozish, tinglash, gapirish) o'z ichiga olgan integratsion mashg'ulotlarni o'tkazish. Differensial yondashuvni qo'llash orqali talabalar til darajasiga mos vazifalarni tayyorlash.

Professional leksikani rivojlantirish: talabalar yo'nalishiga mos keladigan kasbiy terminlarni o'z ichiga olgan autentik matnlar bilan ishlash. Terminologik lug'atlarni yaratish va ulardan amaliy mashqlar tayyorlash. Kasbiy sohadagi real vaziyatlarda ishlatiladigan iboralarga e'tibor qaratish.

Kommunikativ va madaniy kompetensiyalarini rivojlantirish: talabalarni turli madaniyatlar bilan tanishtiradigan topshiriqlarni kiritish. Turli madaniy va mintaqaviy kontekstlarda ishlatiladigan ingliz tilining xususiyatlariga e'tibor qaratish.

Pragmatik kompetensiyasini rivojlantirish: nutq uslubiga e'tibor qaratish (masalan, rasmiy va norasmiy muloqotdagi farqlar). Talabalarni ingliz tilida muloqot qilishda ijtimoiy konventsiya va qoidalar bilan tanishtirish.

Madaniy savodxonlikni rivojlantirish: dars jarayonida madaniy elementlar aks ettirilgan matnlar va videolarni ishlatish.

Til qobiliyatlarini integratsiyalash: o'quv jarayonida o'qish, tinglash, yozish va gapirish ko'nikmalarini birlashtirgan topshiriqlarni qo'llash.

Tanqidiy va ijodiy fikrlashni rag'batlantirish: muammoli savollarga javob topishga qaratilgan vazifalarni ishlab chiqish. O'quv materiallariga tanqidiy yondashishni rag'batlantirish (masalan, o'qilgan matnni baholash yoki muhokama qilish).

Mustaqil o'qishni rivojlantirish (self-study): talabalar uchun tarixiy mavzular bo'yicha o'qish manbalari ro'yxatini yaratish (masalan, ingliz tilida yozilgan tarixiy romanlar, maqolalar, podkastlar). Onlayn resurslar va mobil ilovalar orqali tarixiy

materiallarni mustaqil o'rganishni rag'batlantirish. Mustaqil o'qish natijalarini baholash uchun seminarlar va testlarni tashkil qilish.

Tarix yo'nalishi ingliz tili mashg'ulotlarida haqiqiy matnlardan foydalanishni takomillashtirish uchun mo'ljallangan, kommunikativ va pragmatik yondashuvlarga asoslangan ikkita innovatsion usullarni taklif qilamiz. Taklif qilayotgan metodlarimiz:

“Autentik integratsion yondashuv metodi” - Authentic integration approach. Autentik integratsiyalangan yondashuv (AIY) usulining asosiy maqsadi – bu ingliz tili mashg'ulotlarida haqiqiy til muhitini yaratish, bu uchun autentik materiallar va real hayot kontekstlarini o'rganish jarayoniga integratsiya qilishdir. Ushbu usul til o'rganishni faqat nazariy emas, balki amaliy jihatdan ham ahamiyatli qilishni maqsad qiladi, bu esa talabalarga til ko'nikmalarini bir butun sifatida haqiqiy va amaliy kontent orqali rivojlantirishga yordam beradi (gapirish, tinglash, o'qish va yozish). Autentik integratsiyalangan yondashuv (AIY) usulining asosiy maqsadlari:

1. Haqiqiy hayotga bog'lanish: til o'rganish tajribalarini haqiqiy dunyo vaziyatlari bilan bog'lash. Autentik materiallardan (masalan, yangiliklar maqolalari, podkastlar, ijtimoiy tarmoqlar yoki haqiqiy suhbatlar) foydalanish orqali talabalar tilni kundalik hayotda qanday ishlatilishini o'rganadilar, bu nafaqat auditoriyada, balki real dunyoda ham foydali bo'ladi.

2. Til ko'nikmalarini rivojlantirish: barcha til ko'nikmalarining (gapirish, tinglash, o'qish, yozish) birgalikda integratsiyalashgan rivojlanishiga urg'u beradi. Bu talabalarga til ko'nikmalarining haqiqiy muloqotda qanday ishlashini ko'rsatadi, bu esa ularni tabiiy va samarali tarzda tilni ishlatishga o'rgatadi.

3. Talabaning faolligi va avtonomiyasi: usul talabalarga o'zlari uchun qiziqarli bo'lgan mavzularni autentik materiallar yordamida o'rganish imkonini berib, avtonomiyani rag'batlantiradi. Talabalar tilni o'z hayotlariga va sohalariga mos ravishda, haqiqiy dunyoda qo'llashlari mumkin, bu esa ularni til o'rganishga yanada qiziqtiradi.

4. Amaliy suhbatlashish va kommunikatsiya: AIYM maqsadi faqat grammatik to'g'rilikni o'rganish emas, balki funksional muloqotni rivojlantirishga qaratilgan. Talabalar tilni haqiqiy dunyodagi muloqotlarda samarali ishlatish uchun o'rgatiladi, bu ularning til ko'nikmalarini real hayotga moslashtiradi.

5. Tanqidiy fikrlash va madaniy tushuncha: autentik kontent bilan ishlash orqali talabalar tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradilar, chunki ular haqiqiy ma'lumotlarni tahlil qilish, tushunish va aks ettirishga o'rgatiladi. Shuningdek, ular turli madaniy kontekstlarda tilni qanday ishlatilishini o'rganish orqali madaniy tushunchaga ega bo'ladilar.

6. Multidiscipliner yondashuvni qo'llash: tarix, madaniyat, ilm-fan, ijtimoiy fanlar kabi turli sohalardan autentik materiallarni qo'llash.

Xulosa qilib aytganda, autentik integratsiyalangan yondashuv til o'rganishni haqiqiy dunyo bilan bog'laydi, bu esa til o'rganishni ahamiyatli, qiziqarli va samarali qilishni ta'minlaydi va talabalarni haqiqiy hayotdagi turli vaziyatlar uchun tayyorlaydi. **“Autentik integratsiyalashgan yondashuv”** va **“Professional leksik yondashuv”** metodlarining har biri o'ziga xos afzalliklarni taklif qiladi. AIY metodining afzalliklari tarix sohasini o'rganishda tilni kengroq va kontekstual ravishda ishlatishga qaratilgan bo'lsa, PLY metodining afzalliklari esa tarixiy sohada maxsus til va akademik muloqotni rivojlantirishga qaratilgan.

Demak, ishlab chiqilgan metodlarimizning amaliy natijasi sifatida nofilologik ta'lim tarix yo'nalishi talabalari uchun uchun mo'ljallangan dars ishlanmalari

yaratildi. Baholash jarayoniga “life-long learning” (uzluksiz ta’lim) tamoyillarini kiritish talabalarida faqat qisqa muddatli emas, balki doimiy ravishda tilni rivojlantirishga yo‘naltirilgan motivatsiyani shakllantirdi. Bu esa metodikaning uzoq muddatli samaradorligini kafolatlaydi.

2.5- Jadval.

“Autentik integratsiyalashgan yondashuv” metodining asosiy jihatlari

<i>Tarkibiy qismlar</i>	<i>Yo‘nalish</i>	<i>Tavsif</i>
Til o‘rganish va tarixiy kontent integratsiyasi	Tarix fakulteti talabalariga mo‘ljallangan	1. Tarixiy matnlarni tahlil qilish. 2. Til va tarixni birlashtirish.
Maqsadlar	3. Madaniy va pragmatik kompetensiyani rivojlantirish. 4. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish.	
Asosiy komponentlar	1. Haqiqiy tarixiy matnlar (birinchi manbalar, nutqlar va boshqalar). 2. Tarixiy kontekstda tilni o‘rganish. 3. Tanqidiy tahlil.	
Metodologiya	1. Tarixiy matnlarni o‘rganish. 2. Talabalar guruhda ishlaydi va tarixiy voqealar haqida munozara qilishadi.	
Afzalliklar	1. Talabalar haqiqiy tarixiy voqealarni tahlil qilishadi. 2. Til ko‘nikmalari tarix bilan birga rivojlanadi.	
Qiyinchiliklar	- Haqiqiy matnlar ba’zida qiyin bo‘lishi mumkin.	
Namunaviy amaliy mashg‘ulotlar	1. Tarixiy voqealar haqida oddiy guruh muhokamalari. 2. Tarixiy matnlarni o‘qib, o‘rganilganlarni qisqacha tahlil qilish.	

2.6- Jadval.

“Professional leksik yondashuv” metodining asosiy jihatlari

<i>Tarkibiy qismlar</i>	<i>Yo‘nalish</i>	<i>Tavsif</i>
Tarixiy soha tilini o‘rganish	Tarix fakulteti talabalariga mo‘ljallangan	1. Tarixiy so‘zlarni o‘rganish. 2. Akademik va ilmiy tilni rivojlantirish.
Maqsadlar	3. Tarixiy tahlil uchun tilni ishlatish. 4. Yozuv va muloqotda professional tilni rivojlantirish.	
